

Topshiriqlar:

1. "Qadimgi paporotniksimonlar nega suvga bog'liq holda ko'paygan?" mavzusida esse yozing. **(Botanika, tarix va adabiyot fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

- Esseda quyidagilarga javob bering:
 - Qaysi davrda bu o'simliklar yashagan?
 - Ularning ko'payishida suvning qanday roli bo'lgan?
 - Hozirgi o'simliklarga qanday o'xshash yoki farqli jihatlari bor?

2. O'simliklarda jinssiz va jinsiy ko'payish jarayonini ta'riflab va bir-biriga qiyoslab taqdimot tayyorlang. Mavzuga mos biologik masala ham tayyorlang. **(Botanika, matematika va informatika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

3. O'simlik changlarining va mikrosporalarining harakati fizik qonunlar bilan tushintiring. **(Botanika va fizika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

4. Quyidagi masalani ishlang. **(Botanika va matematika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

 Topshiriq:

Geometrik progressiya asosida sporalar sonini hisoblang.

- Bitta sporangiyda 64 spora
- Bitta bargda 10 ta sporangiy

Daraxtda 100 ta bunday barg bo'lsa, jami nechta spora bo'ladi?